

FAVQULODDA VAZIYATLARGA AHOLINI TO'G'RI HARAKAT QILISHGA O'RGATISH USULLARI

Karimov Xamraquul Sattarovich

Jizzax viloyati Hayot faoliyati xavfsizligi o'qitish markazi katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10971938>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar soni va ko'lami ortib borayotgan hozirgi sharoitda aholini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash masalasining dolzarbligiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: favqulodda vaziyatlar, tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlar, aholini tayyorlash, favqulodda vaziyatlar vazirligi, fuqaro muhofazasi.

METHODS OF TRAINING THE POPULATION TO ACT CORRECTLY IN EMERGENCY SITUATIONS

Abstract. This article focuses on the relevance of preparing the population to act in natural and man-made emergency situations in the current conditions, where the number and scale of natural and man-made emergency situations are increasing.

Key words: emergencies, natural and man-made emergencies, population training, Ministry of Emergency Situations, civil protection.

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ПРАВИЛЬНЫМ ДЕЙСТВИЯМ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ

Аннотация. В данной статье акцентируется внимание на актуальности подготовки населения к действиям в чрезвычайных ситуациях природного и техногенного характера в современных условиях, когда количество и масштабы чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера возрастают.

Ключевые слова: чрезвычайные ситуации, чрезвычайные ситуации природного и техногенного характера, обучение населения, МЧС, гражданская защита.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiy etgani sari sanoat ob'ektlarining soni va qazilma boyliklarning o'zlashtirish miqdori ortib boradi. Bu tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar soni ham ortib boraverishiga sababchi bo'ladi. Bunday sharoitda aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan aholining barcha qatlamlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibi belgilab berilgan. Bunda aholini tayyorlashda asosiy vazifalar qilib quyidagilar belgilangan:

davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari, ishchi va xizmatchilarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda fuqaro muhofazasi bo'yicha bilimlarini izchil oshirib borish va ko'nikmalarini hosil qilish;

qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari, shuningdek, fuqaro muhofazasi tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga tayyorlash;

aholini, shu jumladan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lmaganlarni, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, umumiy o'rta ta'lim

maktablari o'quvchilari, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalari talabalarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari va usullariga o'rgatish.

Ushbu vazifalarni bajarish, ya'ni aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tadbirlariga metodik rahbarlik qilish, ularni muvofiqlashtirish va nazorat qilish uchun mas'ul organ qilib O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi belgilangan bo'lib, vazirlik tomonidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- favqulodda vaziyatlar vazirligi aholini tayyorlash sohasida;
- tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshiradi, tadbirlarni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;
- tashkiliy ko'rsatmalar va o'quv dasturlarini ishlab chiqadi va kelishadi;
- o'quv mashqlari, mashg'ulotlari va boshqa tadbirlarni tashkil etadi va o'tkazadi;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qiladi va keng foydalanilishini tashkil etadi;
- tizimidagi aholini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan muassasalarning tinglovchilar bilan jamlash rejalarini tegishli davr uchun shakllantiradi va tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig'iga kiritadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan aholini tayyorlashning eng samarali usuli va oliy shakli deb o'quv mashqlari e'tirof etilib keng miqyosda har xil toifadagi ob'ektlar, tashkilotlar va fuqarolarni jalb etgan holda o'tkaziladigan o'quv mashqlari tan olingan.

Shu sababli joylarda kompleks o'quv mashqlari, qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlari, maxsus-taktik o'quv mashqlari, ob'ekt o'quv mashg'ulotlari o'tkazish belgilab qo'yilgan. O'tkazilib kelinayotgan bunday o'quv mashqlariga Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan metodik yordam ko'rsatib kelinmoqda.

Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashning ahamiyati katta ekanligi hisobga olinib Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va Maktabgacha ta'lim vazirliklari bilan kelishgan holda hayotiy faoliyat xavfsizligi va fuqaro muhofazasi yo'nalishlaridagi o'quv dasturlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirilib borilmoqda.

Bundan tashqari Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutida har 3 yilda bir marta respublika va viloyat miqyosidagi tashkilotlar rahbarlari va mas'ul mutaxassislari, shuningdek, tumanlar va shaharlar hokimlari hamda ularning o'rinbosarlarining malakalari oshirilib, qayta tayyorlanmoqda.

Joylarda tashkil etilgan "Hayot faoliyati xavfsizligi" o'quv markazlarida 3 yilda bir marta tumanlar va shaharlar miqyosidagi tashkilotlar rahbarlari va mas'ul mutaxassislari, qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va fuqaro muhofazasi tuzilmalari boshliqlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rahbarlarining malakasi oshirilib, qayta tayyorlanmoqda. Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sifatini oshirish uchun Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan kadrlar tayyorlash ishlariga katta e'tibor berilib kelinmoqda.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha

axborot uzatish vakolatiga ham ega bo'lib, ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan keng foydalangan holda fuqarolarni favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda harakat qilishga tayyorlash tizimini shakllantirish ishlari olib borilmoqda.

Aholini tayyorlash ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari Hayotiy faoliyat xavfsizligi o'quv markazlarida zamonaviy ko'rgazmali materiallar, interaktiv o'qitish vositalari bilan jihozlangan favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash majmualarini tashkil etish ko'zda tutilgan.

Ish bilan band bo'lmagan aholi toifasini tayyorlashning eng maqbul yo'li mahallalar vositasida aholini tayyorlashni yo'lga qo'yish ekanligidan kelib chiqib Favqulodda vaziyatlar vazirligi vositachiligida mahallalarda ish bilan band bo'lmagan aholini tayyorgarlikdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan moddiy bazani yaratish (xona ajratish, uni ko'rgazmali o'quv-uslubiy materiallar, plakatlar, broshyuralar, eslatmalar, tashkiliy texnika hamda boshqalar bilan jihozlash) aholi bilan turli favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish bo'yicha amaliy mashq va o'quv mashg'ulotlari o'tkazish ishlari olib borilmoqda.

Aholini ko'chirish-ehtimoli bo'lgan yoki yuz bergan tabiiy, texnogen xususiyatli favqulodda vaziyat hududidan aholini transportda, piyoda olib chiqish va avvaldan tayyorlab qo'yilgan xavfsiz, ya'ni, favqulodda vaziyat ta'siri bo'lmagan joylarga vaqtincha joylashtirish tadbirlari majmuidir.

Aholini turli xususiyatlardagi favqulodda vaziyatlardan muhofazalash, barcha ob'yektlar, tashkilot va muassasalar rahbarlarini eng asosiy vazifalaridan bo'lib, ushbu "Aholi va hududlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida bayon etilib belgilangan tartibda evakuatsiyaga oid tadbirlarni o'tkazish va odamlarni joylashtirish maqsadida oldindan bazalar tayyorlab qo'yish lozimligi qayd etilgan. Shu sababli hozirgi vaqtda ham favqulodda vaziyatning ko'lamiga qarab muhofaza qilishni eng maqbul usullaridan biri, imkon darajasida aholini xavfli joylardan olib chiqib ketish, ya'ni evakuatsiya tadbirlarini o'tkazish xisoblanadi.

Lekin ushbu tadbirlarni o'tkazish ancha murakkab bo'lib, unda barcha davlat organlarini tayyorgarligini oshirish, fuqarolarni qanday harakat qilishga o'rgatish masalalariga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ofat yuz bergan joyga maxsus xizmatlarni yetib kelguncha bir muncha vaqt kerak bo'ladi. Tezlik bilan harakat qilinmasa, favqulodda vaziyatlar ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Mahalliy ko'chirishlar - o'rtacha kattalikdagi shaharlar, yirik shaharlarning alohida tumanlari, qishloq tumanlari favqulodda vaziyat zonasiga tushib qolgan hollarda o'tkaziladi.

Bunda ko'chiriladigan aholi soni bir necha mingdan o'nlab ming kishigacha etishi mumkin bo'lib, ular, odatda, favqulodda vaziyat zonasi bilan yondosh havfsiz joylarga joylashtiriladi.

Mintaqaviy ko'chirishlar - shikastlovchi omillar anchagina keng maydonga yoyilib, yirik shaharlarni ham o'z ichiga olgan, aholisi juda zich joylashgan bitta yoki bir necha mintaqqa hududini qamrab olganda amalga oshiriladi. Mintaqaviy ko'chirishda favqulodda vaziyat zonasidan transportda (piyoda) olib chiqiladigan aholi doimiy yashab turgan joylaridan anchagina uzoqqa ko'chirilishi mumkin.

REFERENCES

1. Амиров, М. У., & Эрхонбоев, Н. А. Ў. (2023). «Безопасность жизнедеятельности» современная актуальность изучения науки. *Ta'lim fidozilari*, 4(1).
2. Амиров, М. У., & Эрхонбоев, Н. А. Ў. (2023). Рассмотрение мер по обеспечению личной безопасности и здоровья в сфере безопасности жизнедеятельности. *Ta'lim fidozilari*, 4(1).
3. Ergashevich, U. M. N. M. B. (2023). PROBLEMS OF PREVENTING ACCIDENTS ON RAILWAYS AND ENSURING THE SAFETY OF CITIZENS. *Journal of Modern Educational Achievements*, 5(5).
4. Abdazimov, S. K., & Medeshev, B. E. (2023). LABOR PROTECTION RULES AND INSTRUCTIONS WHEN USING COMPUTER AND ORG TECHNIQUES IN PRODUCTION ENTERPRISES, ORGANIZATIONS AND INSTITUTIONS ARE WE DOING IT RIGHT?. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(3).
5. Erxonboyev, N., & Medeshov, B. (2023). О 'ТА ХАВФЛИ YUQUMLI KASALLIKLAR ANIQLANGANDA, HARAКATLANISH QOIDALARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(10).